



O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA OCHIQ MA'LUMOTLARGA DOIR MUAMMOLAR TAHLILI

Ochilova Madina Bahodir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7353451>

ARTICLE INFO

Received: 14th November 2022

Accepted: 20th November 2022

Online: 24th November 2022

KEY WORDS

Ochiqlik siyosati, ochiq ma'lumotlar, "Davlat siri to'g'risida"gi qonun, jamoatchilik, yopiq ma'lumotlar.

ABSTRACT

Ochiqlik siyosati har bir demokratik davlatning asosiy prinsiplaridan biridir. Shu jumladan, davlat idoralarining ochiqlik va jamoatchilikka ochiq ma'lumotlarni taqdim etishda qonunchilikda normativ-huquqiy hujjatlarda aniqlik bo'lishi, zarur mezonlar aniq belgilab qo'yilishi juda muhim. O'zbekiston so'nggi yillarda ochiqlik sari dadil qadamlar tashlayotganiga qaramay, qonunchilikda hamon ochiq ma'lumotlar borasida noaniqliklarlar va aniq belgilanmagan mezonlar tufayli jamoatchilik ochiq ma'lumotlarni olishda to'sqinliklarga duch kelmoqda. Ushbu ilmiy maqolada davlat idoralarining ochiqlikiga oid normativ hujjatlardagi noaniqliklar tahlil qilinadi. Amaliyotda qonunchilikdagi bu bo'shliqlar qanday muammolarni tug'dirayotgani tahlil qilinadi.

O'zbekistonda 2015-yilda tashkil etilgan Ochiq ma'lumotlar portali 2019-yilda Prezident qarori bilan butkul yangilandi. Bu yangilanishlar yanada mukammallashtirish, uning konsepsiyasini ishlab chiqish, ma'lumotlar bazasini kengaytirish va xorijiy tillarni qo'shish kabi o'zgarishlarni o'z ichiga oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqlik va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga¹ muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi davlat organlari va tashkilotlarining ochiq

ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash, tegishli axborotlarning O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali² (data.gov.uz)da o'z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtiruvchi mas'ul organ sifatida belgilandi.

2021 yil 17 iyunda "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqlikini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni³ qabul qilindi.

² <https://data.gov.uz>

³ <https://lex.uz/docs/-5459107>

¹ <https://lex.uz/docs/-4277342>



Farmonga muvofiq, Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlandi. Ochiq ma'lumotlarni joylashtirishi talab etiladigan tashkilotlarga barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalar kiritildi.

Shundan so'ng, Vazirlar Mahkamasining 22.06.2021 yildagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-qaror" elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 390-son qarori⁴ qabul qilindi.

Garchi O'zbekiston ochiqlik siyosati sari dadil qadamlar tashlab, ochiq ma'lumotlar sohasida katta o'zgarishlarga qo'l urganiga qaramay, qonunchilikda bu borada bir qancha sezilarli bo'shliqlar bor. Bu amaliyotda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik vakillarining ochiq ma'lumotlardan foydalanishda to'siqlarga uchrashiga, zarur ma'lumotlarni olishda qiyinchilikka duch kelishiga sabab bo'lmoqda.

Masalan, Toshkent shahar Kengashining byudjet sarhisobi bo'yicha 2022-yil 3-noyabrdagi VI-72-289-14-0-K/22 qarori 2022-yil 7-noyabr kuni e'lon qilinib, 9-noyabr kuni o'chirib yuborildi. Jamoatchilik tanqididan so'ng, qaror qayta bazaga joylandi.⁵

Qonunchilikka muvofiq hokimliklar tomonidan ayrim hollarda foydalanilishi cheklangan axborotlarni (mudofaa, xavfsizlik, shaxsga doir ma'lumotlar, vasiylik va homiylik hamda boshqalar) o'z ichiga olgan qaror va farmoyishlar qabul qilinadi.⁶

"E-qaror" platformasida Hokim (kengash raisi)ga qaror imzolanishidan avval mazkur hujjatni qabul qilinishi bilanoq tizim bosh sahifasida avtomatik tarzda e'lon qilish yoki e'lon qilmaslikni belgilash imkoniyati yaratilgan. Bunday huquqqa faqat hokim — kengash rahbarigina ega.

Biroq ushbu keysda Toshkent shahar byudjeti borasidagi ma'lumotlar mudofaa, xavfsizlik, shaxsga doir ma'lumotlar, vasiylik va homiylik kabilarni o'z ichiga olmaydi. Shu ma'noda Toshkent shahar hokimligi foydalanish cheklangan ma'lumotlar toifasiga kirmaydigan (byudjetga oid) ma'lumotlarni ham tizimda e'lon qilmaslik funksiyasidan foydalanayotganini ko'rish mumkin.

Hokimlarga istalgan qarorini platformada ochib qo'yish yoki yopish huquqining berilishi amaliyotda ochiq ma'lumotlarni olishda muammolarni yuzaga keltirayotganini ko'rish mumkin. Shu sababli, qonunchilikka "ochiqalmaslik taqiqlanadigan" ma'lumotlar ro'yxatini kiritish lozim.

Iqtisodchi Otabek Bakirovning noyabr oyining birinchi yarmidagi "E-qaror" tizimidagi tahlillari shuni ko'rsatdi-ki, Toshkent shahar hokimi 45ta qaror qabul qilgan, ammo shundan 37tasi e'lon qilinmagan yoki yopib qo'yilgan.⁷ Bu qisqa davr ichida hokimning 80 foizdan ortiq qarori e'lon qilinmaganini anglatadi.

⁴ <https://lex.uz/docs/-5470461>

⁵ https://www.gazeta.uz/ru/2022/11/10/e-qaror/?utm_source=push&utm_medium=telegram

⁶ <https://lex.uz/docs/-4277342>

⁷ https://t.me/the_bakiroo/5806



“Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga “E-qaror” elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarorida qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat siri hisoblangan ma‘lumotlar va maxfiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini “E-qaror” elektron tizimi orqali qabul qilishga yo‘l qo‘ymaslik belgilangan.

Ammo qonunchilikda “davlat siri”ga oid sezilarli bo‘shliq borligini ta‘kidlash lozim. “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi qonunda davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o‘zga xil ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanishi belgilangan.⁸

Tabiiy savol tug‘iladi, o‘zi qanday ma‘lumotlar davlat siri hisoblanadi? Ushbu qonunda axborotlarni maxfiylashtirish va maxfiylikdan chiqarish “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ma‘lumotlarning maxfiylik darajasini aniqlash va belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizom va O‘zbekiston Respublikasida maxfiylashtirilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar ro‘yxatiga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. ⁹Ammo Vazirlar Mahkamasining nizomi ham, O‘zbekiston Respublikasida maxfiylashtirilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar ro‘yxati ham ochiq emas.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Akmal Burxonov jurnalistlarga 2021-yilda “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamaga chiqarilishini ma‘lum

qilgandi.¹⁰ Biroq hamon bu qonun qabul qilinmay kelinmoqda. Natijada, bir qator normativ hujjatlarda qanday ma‘lumotlar davlat siriga kirishi mumkinligi qonunchilikda tavsiflanmagani bois noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Afsuski, ochiqlik siyosatida davlat siri masalasiga kelganda mavhumliklar bor. Bu esa amaliyotda jurnalistlarga davlat organlari tomonidan “istalgan” ma‘umotni “davlat siri” toifasiga kiritish orqali ma‘lumot berishdan bosh tortish holatlarini yuzaga keltirmoqda.

Xulosa o‘rnida, ochiqlik siyosatini yanada dadil davom ettirish uchun bir qator mulohazalarni ilgari suramiz.

Birinchidan, yuqoridagilarni inobatga olgan holda ochiq ma‘lumotlarga oid qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish juda zarur. Buning uchun, amaliyotda jurnalistlar va jamoatchilik ma‘lumotlarni olishda qaysi bosqichda qiyinchilikka uchrayotganini tahlil qilish kerak.

Ikkinchidan, “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi, davlat siriga kiradigan ma‘lumotlar aniq tavsiflanishi zarur.

Uchinchidan, davlat siriga kiradigan ma‘lumotlar aniq tavsiflangandan keyin ushbu ro‘yxatdan tashqaridagi ma‘lumotlarni ochiqalmaslik qonun bilan taqiqlanishi lozim.

⁸ <https://lex.uz/ru/docs/-98850>

⁹ <https://lex.uz/ru/docs/-98850>

¹⁰ <https://kun.uz/news/2021/10/20/davlat-sirlari-va-korrupsionerlar-reyestriga-doir-qonun-loyihalari-tez-kunlarda-elon-qilinadi-akmal-burxonov>



References: